

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON RESURSLARINI SAMARALI BOSHQARISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li

Qarshi davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi

E-mail: shaxzodganiyev46@gmail.com

Inatov Furqat Shuhratovich

Qarshi davlat universiteti iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi

E-mail: furqatshuhratovich@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot sharoitida inson resurslarini boshqarishda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalardan foydalanishning tahlilar, olib borilgan o'r ganilishlar bayon etilgan. Inson resurslarini boshqarishda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari izohlanilib bu boradagi xulosa va izlanishlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, HRM, internet-banking, elektron xizmatlar, elektron mahsulotlar, elektron hukumat, kommunikatsiya, HRMS, KPI, bulutli texnalogiya, elektron plattforma.

PRIORITY DIRECTIONS FOR EFFECTIVE HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: The article describes the analysis and studies of the use of innovations and digital technologies in the management of human resources in the conditions of the digital economy in the Republic of Uzbekistan. The directions of using innovations and digital technologies in human resources management are explained, conclusions and researches are discussed in this regard.

Keywords: Digitization, HRM, internet banking, electronic services, electronic products, electronic government, communication, HRMS, KPI, cloud technology, electronic platform.

Raqamlashtirish bu – hayotning turli sohalariga, jumladan iqtisodiyot, ta'liming barcha bosqichlari, madaniyat, tibbiyot, turizm, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va boshqa jarayonlarga raqamli texnologiyalarni joriy qilishdir¹. Bugungi turmush tarzimizni, hayotimizni olib qaraydigan bo'lsak, har sohada, har jabhada, har bir yumush va ishlarimizda biz axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlariga suyangan holda o'z maqsadlarimizni bajaramiz. Barcha sohalarda bo'lgani kabi iqtisodiyotda ham xususan aynan inson resurslarini strategik boshqarilishida ham axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlari, raqamli texnologiyalar tadbiq etib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-sun Farmoni bilan tasdiqlangan "O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasining 77-maqsadida "Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun "Servis davlat" tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish" ko'zda tutilgan². Inson resurslarini boshqarish tizimlarini raqamlashtirish iqtisodiyot

1 Raqamli iqtisodiyotga oid so'z va atamalarni bilasizmi? -maqola, <https://mitc.uz/uz/news/1554> sayti, Nurulla Abdullayev, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri maslahatchisi

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-sun Farmoni bilan tasdiqlangan "O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasi, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida 2020-yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

PQ-4699-sonli qarori3 qabul qilindi. Qarorning 6-ilovasida 2020-2022-yillarda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish bo‘yicha ustuvor loyihalar ro‘yxatiga Inson resurslarini boshqarish tizimi (HRMS)ni hamda xodimlar faoliyatini baholash tizimi (KPI)ni joriy etish vazifasi qo‘yilgan. HRMS - bu xodimlarni boshqarish tizimi. Ushbu tizim kompaniyalar o‘zlarining ichki HR funksiyalarini boshqarish uchun foydalanadigan dasturlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Demakki so‘ngi yillarda aynan yurtimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida inson resurslarini samarali tarzda raqamli boshqaruv mexanizmlarining normativ huquqiy asoslari yaratildi va yaratilmoqda. O‘zbekistonda inson resurslarini raqamli boshqarish tizimlari so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan jadal rivojlanmoqda. Bu tizimlar davlat idoralari, xususiy korxonalar va tashkilotlarda kadrlar bilan ishlash bo‘yicha jarayonlarni optimallashtirish hamda samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kuzatuvlar hamda izlanishlar asosida mamlakatimizda ayni kunlarda mavjud va kelgsida rivojlanishi kutilayotgan mana shunday tizimlarni haqida ma‘lumotlar to‘plandi. Bu tizimlarni tartiblash jarayonida shartli ravishda 2 ta yirik guruhga ya‘ni **davlat inson resurslarini boshqarish tizimlari** va **xususiy sektorda inson resurslarini boshqarish tizimlariga** ajratilib olindi. Davlat inson resurslarini boshqarish tizimlariga quyidagilar kiritildi:

HRM.argos.uz O‘zbekistondagi korxonalar va tashkilotlar uchun kadrlarni boshqarish (HRM - Human Resource Management) jarayonlarini avtomatlashtirishga yordam beradigan eng yangi raqamli platforma hisoblanadi. Bu platforma, asosan davlat korxonalari va tashkilotlarida inson resurslarini samarali boshqarish va nazorat qilish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Mazkur platformaning afzalliklari **avtomatlashtirish** (inson resurslarini boshqarish bo‘yicha ko‘plab jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini beradi, bu esa qo‘lda bajariladigan ishlarni kamaytiradi), **ma‘lumotlarning xavfsizligi** (platformada ma‘lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta‘minlash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanadi) **moslashuvchanlik** (korxona va tashkilotlar uchun moslashtirilgan hamda doimiy tarzda platformaga o‘zgarishlar qo‘sib boriladi)

Yagona milliy mehnat tizimi (YaMMT): Bu tizim O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan yaratilgan. YaMMT davlat va xususiy sektorda ishlayotgan xodimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va ular bilan bog‘liq kadrlar jarayonlarini avtomatlashtirish uchun ishlatiladi. Ushbu tizim orqali davlat tashkilotlari va xususiy korxonalar mehnat shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazishlari va monitoring qilishlari mumkin.

Edo.ijro.uz – bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, hukumat qarorlari hamda boshqa davlat hujjatlarini ijro etish va monitoring qilish uchun mo‘ljallangan raqamli platforma. Ushbu tizim davlat idoralari, tashkilotlar va korxonalar o‘rtasidagi rasmiy hujjatlar aylanishini boshqarish, tezkorlik va shaffoflikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Edo.ijro.uz tizimining afzalliklari bu **ijro nazoratining kuchayishi** (hujjatlar qabul qilinishi, ijro etilishi va natijalari haqida doimiy monitoring qilish imkoniyati davlat tizimi samaradorligini oshiradi), **hujjatlarni raqamlashtirish** (tizim qog‘oz hujjatlar o‘rniga elektron hujjatlar aylanishini rag‘batlantiradi, bu esa vaqt va xarajatlarni kamaytiradi), **ish jarayonlarining tezkorligi** (ijro muddati va jarayonlarini kuzatish, hujjatlarning vaqtida bajarilishini ta‘minlaydi), **xavfsizlik va**

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2020 yildagi PQ-4699-sonli “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, <https://lex.uz/docs/-4800657>

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ishonchlilik (raqamli imzo va ma'lumotlarning xavfsizligi tizimning muhim komponentlaridan biri hisoblanadi).

Vacancy.argos.uz – bu O'zbekistondagi ish qidirayotgan shaxslar va ish beruvchilar o'rtaida oson aloqa o'rnatish uchun xizmat qiladi. Ya'ni bu platforma korxona va tashkilotlarga o'zlarida mavjud vakansiyalarni e'lon qilish va munosib nomzodlarni izlash imkoniyatini beradi, shuningdek, ish qidirayotganlarga esa bo'sh ish o'rinnarini topish va o'zları haqidagi rezyumelarini joylashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Uning afzalliklari:

- **Tezkor va oson foydalanish** – har ikki tomon uchun qulay qidiruv va joylashtirish imkoniyatlari;

- **Avtomatlashtirilgan jarayonlar** – vakansiyalarni va rezyumelarni filtrlaydi va tahlil qiladi.

- **Ma'lumotlar bazasi** – keng ko'lamdag'i vakansiyalar va nomzodlar haqida ma'lumotlar saqlanadi.

Onlayn aloqa – ish beruvchilar va nomzodlar o'rtaida to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish imkoniyatlarini beradi

Bundan tashqari davlat tashkilot va korxonalarida raqamli bank va moliya tizimlari, elektron budjet raqamli elektron tizimlaridan keng foydalilmoqda. Shuningdek, ta'lim sohasida foydanilayotgan kundalik.com, modul, Hemis kabi elektron raqamli tizimlar va tibbiyot, sog'liqni saqlash sohasida qo'llanilayotgan

E-tibbiyot, Telemeditsina, "Yoshlar tibbiyoti" va "Tez tibbiy yordam" tizimlari, raqamli retseptlar va elektron tibbiy kartalar tizimlarini misol sifatida ko'rsatish mumkin.

Yurtimizdag'i xususiy sektordagi inson resurslarini boshqarish tizimlariga quyidagilar kiritildi:

hh.uz (Head Hunter) — O'zbekistondagi eng yirik ish qidirish va ish e'lonlari plattformalaridan biri. U xususiy va davlat sektorida ish beruvchilar va ish qidiruvchilarni birlashtiradi. Ushbu platforma asosan quyidagi xizmatlarni taklif etadi bo'sh ish o'rinnarini haqidagi e'lonlar, onlayn rezyume yaratish, qidiruv filtrlari (ish o'rinnarini saralash), ish beruvchilarning profilingi (kompaniyalar o'z profilini yaratish orqali ish qidiruvchilarga o'z brendlarini tanitish va ish joylari haqida ma'lumot berish imkoniyatiga ega), statistik ma'lumotlar (platforma ish beruvchilar va ish qidiruvchilarga bozorning talab va taklifini tahlil qilishga yordam beradigan statistik ma'lumotlar taqdim etadi), malaka oshirish imkoniyatlari (hh.uz platformasi orqali foydalanuvchilar malaka oshirish kurslari va seminarlar haqida ma'lumot olishlari va ro'yxatdan o'tishlari mumkin), platformaning mobil ilova versiyasi mavjudligi, platforma ish qidiruvchilarga ishga joylashish jarayonida yordam berish uchun turli maslahatlar va resurslar taqdim etadi.

smart-hr.uz – O'zbekiston Respublikasida inson resurslarini boshqarish (HR) sohasida innovatsion raqamli yechimlarni taqdim etuvchi platforma. Ushbu platforma xususiy va davlat sektorlidagi kompaniyalarga xodimlar bilan ishslash jarayonlarini avtomatlashtirish va soddalashtirishda yordam beradi. Smart-hr.uz platformasining asosiy xususiyatlari va xizmatlari quyidagilardan iborat:

Xodimlar ma'lumotlarini boshqarish – platforma xodimlar haqidagi ma'lumotlarni (rezyumelar, shaxsiy ma'lumotlar, ish tarixlari va boshqalar) markazlashtirilgan holda boshqarishga imkon beradi;

Ishga qabul jarayoni – ishga qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish imkoniyatlarini taklif etadi. Nomzodlar uchun onlayn ariza topshirish, intervylularni rejalashtirish va natijalarni kuzatish imkoniyatlari mavjud;

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Malaka oshirish va rivojlanadirish – xodimlarning malakasini oshirish va professional rivojlanishlarini qo'llab-quvvatlash uchun treninglar va kurslarni rejalashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi;

Ish haqi va rag'batlantirish tizimi - platforma orqali ish haqini hisoblash, rag'batlantirish tizimlarini belgilash va xodimlar o'rtasida adolatli baholash jarayonlarini amalga oshirish imkoniyati mavjud;

Hisobot va tahlil – Smart-hr.uz foydalanuvchilarga tahlil va hisobotlar tayyorlash imkoniyatini beradi, bu esa HR strategiyalarini shakllantirishda yordam beradi;

Onlayn interfeys – platforma zamonaviy onlayn interfeysga ega bo'lib, foydalanuvchilarga qulay va intuitiv ishslash imkonini beradi;

Maxfiylik va xavfsizlik – Smart-hr.uz platformasi xodimlar haqidagi ma'lumotlarni himoya qilish uchun xavfsizlik choralarini o'z ichiga oladi, bu esa maxfiylikni ta'minlaydi;

Mobil qo'llab-quvvatlash – mobil ilovalar yordamida foydalanuvchilar platformaga kirish va ish jarayonlarini har qanday joyda boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari ushbu yo'nalihsda HRC.uz; Kadrovik.uz; hr.uz; ancor.co.uz; greenwhite.uz kabi raqamlı onlayn platformalar mavjud. Shuningdek o'zbek dasturchilari tomonidan yaratilgan restoranlar uchun elektron boshqaruv tizimlari (offlaysn formatda ishlaydi), elektron raqamlı kassa boshqaruvi tizimlari va boshqalar ham keng va samarali tarzda qo'llanilib kelinmoqda.

Raqamlı iqtisodiyot ma'lumotlar, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va raqamlı platformalar yordamida iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish va yaxshilashni anglatadi. Bu yangi sharoitda inson resurslarini boshqarishning samaradorligi, tezligi va moslashuvchanligini oshirish zarur. Buning uchun bir qator ustuvor yo'nalihslarni belgilab olish lozim:

- raqamlı Texnologiyalarni amaliyotga keng va to'laqonli tarzda joriy etish;

- raqamlı platformalar va raqamlı vositalar yordamida inson resurslarini boshqarish jarayonlarini optimallashtirish misol uchun LinkedIn va Workday kabi platformalar orqali ishchilarni jalb qilish va boshqarish;

- ma'lumotlarni tahlil qilish – katta ma'lumotlar (Big Data) orqali xodimlarning ma'lumotlari tahlil qilinadi va qarorlar qabul qilishda yordam beradi misol uchun IBM Watson orqali xodimlarning ish faoliyatini baholash singari;

- moslashuvchan ish sharoitlari masofaviy ish va fleksibil (moslashuvchan ish jadvali) jadval taklifi, xodimlarning ishga qiziqishini oshiradi misol uchun Google va Microsoft kabi kompaniyalar masofaviy ishslash imkoniyatini taqdim etadi;

- xodimlar Malakasini Oshirish - raqamlı ta'lim va onlayn treninglar orqali xodimlarni malakasini oshirish. Misol: Coursera va Udemy orqali xodimlarga yangi ko'nikmalarni o'rgatish kabi yurtimizda ham bu tajribalarni keng qo'llash;

- sun'iy intellekt va avtomatlashtirish – sun'iy intellekt yordamida ish jarayonlarini avtomatlashtirish va xodimlarning yukini kamaytirish misol uchun Chatbotlar yordamida mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish kabi yo'nalihslarda yurtimizda amaliy ishlarni qo'llash lozim⁴.

Umuman olganda inson resurslarini boshqarishda rivojlangan mamlakatlar tajribalariga nazar soladigan bo'lsak bu sohada anchayin ilg'or yutuqlarni sanash mumkin. Misol uchun AQShda yirik texnologik kompaniyalar, masalan, Amazon va Apple, inson resurslarini boshqarishda **raqamlı analitikalarni** keng qo'llaydi va sun'iy intellektni amaliyotga joriy etgan. Yaponiyada esa raqamlı transformatsiya jarayonlari davomida ishchilarni malakasini oshirishga qaratilgan dasturlar ko'p yillik an'anaviy ish uslublarini yangilashga olib keldi. Masalan, Toyota

4 "Human Resource Management in the Digital Age" Muallif: Strohmeier, S., 2016-yil, "International Journal of Human Resource Management" ilmiy jurnali

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

kompaniyasi ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda sun'iy intellekt va avtomatlashtirishdan foydalanadi. Yevropa Ittifoqi hududagi kompaniyalar, masalan, SAPda raqamli transformatsiya va kiberxavfsizlikka juda katta e'tibor beriladi, hattoki xodimlar uchun raqamli ta'lif platformalarini ishlab chiqilgan. Mazkur davlatlarning bu sohadagi ustuvor jihatlari quyidagilda namoyon bo'ldi:

- innovatsion madaniyatni rivojlantirish – korxonalar ichida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va xodimlarni yangi g'oyalar bilan rag'batlantirish;
- diversifikatsiya va inklyuzivlik – turli xil salohiyatli inson resurslarini jamoaga jalgab qilish lozim, bu ning natijasida esa faoliyatda ijodkorlikni va innovatsiyalarni oshiradi;
- barqarorlik va xavfsizlik - raqamli platformalardagi xavfsizlikni ta'minlash, xodimlar ma'lumotlarini himoya qilish va xavfsizlikka alohida e'tibor berish.
- xodimlar raqobatbardoshligini oshirish – raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish orqali xodimlar raqobatbardoshligini oshirishda kabi yo'nalish muhim va ustuvor hisoblanadi.

XULOSA

Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo'lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog'iqliqi saqlash, fan-ta'lif, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o'zining yuqori samaralarini bermoqda. Davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi — bu raqamli iqtisodiyotning assosiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-soni Farmoni bilan tasdiqlangan "O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasi, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2020 yildagi PQ-4699-soni "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, <https://lex.uz/docs/-4800657>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagagi PQ-3124-soni Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-3262295#-3262789>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagagi PQ-3124-soni Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-3262295#-3262789>
5. "Human Resource Management in the Digital Age" Muallif: Strohmeier, S., 2016-yil, "International Journal of Human Resource Management" ilmiy jurnalni
6. Inson resurslarini boshqarish - A.B.Xayitov, darslik, Toshkent – 2019 yil, 7-bet
7. Управление персоналом / Под ред. А.Я. Кибанова. М., 2008
8. Назарова Г.Г., Мухамеджанова Г.А., Салихова Н.М., Исмаилова Н.С., Розметова Н.Б. "ИНСОН РЕСУРСЛАРИ МЕНЕЖМЕНТИ" (ўкув қўлланма) Тошкент – 2010.
9. Raqamli iqtisodiyotga oid so'z va atamalarni bilasizmi? -maqola, <https://mitc.uz/uz/news/1554> sayti, Nurulla Abdullayev, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri maslahatchisi
10. Xayriddinov, S. B. (2023). O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATLARI MOLIYAVIY NATIJALARIGA BIR NAZAR. Research Focus International Scientific Journal, 2(11), 35-39.

11. Хайриддинов, Ш. Б., & Менглибойев, С. Т. (2023). БЮДЖЕТ МУАССАЛАРИДА МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШНИ ЎЗИГА ХОС УСУЛЛАРИ. *Research Focus*, 2(12), 27-32.

12. Xayriddinov, S. (2024). Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag 'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamонавиј va istiqbolga mo 'ljallangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to 'g 'risida.

13. Botirovich, K. A., & Batirovich, K. S. (2023). Local Budget Revenues As an Important Link of Territorial Revenue Power.